



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI

Mansurova Yulduz Faxriddinovna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat**O'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti**mansurovayulduz1984@gmail.com***Annotatsiya**

Maqolada ikki buyuk shaxs Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy siymosining o'zbek adabiyotidagi badiiy talqinini kuzatish maqsad qilingan. O'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Muzaffar Mirzoning... "Sham va shamshir" romanidagi voqealar tahlil qilingan. Roman qahramonlari ruhiyatini ochishda adibning mahorati yoritilgan. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Husayn Boyqarolarning buyuk do'stligi, ularning bir-birlariga bo'lgan tuyg'ulari tahlilga tortilgan. Tarixiy shaxslarni o'rganishdagi tasniflash usullari keltirib o'tilgan. Qahramonlar ruhiyatini ochib berish uchun va shu bilan birgalikda o'quvchiga ushbu tarixiy shaxslarning zakiiy, nozik fikrli hamda oqil ekanliklarini odilona tarzda yetkazib berish maqsadida "Sham va shamshir" romanidan parchalar keltirilgan. Asar nafaqat badiiyat jihatdan, balki tarixiy faktlarni aniq tasvirlashga bag'ishlanganligi bilan ilmiy-adabiy qimmatga ega.

Kalit so'zlar: Samarqand, ixroj, tarixiy shaxs, hukmdor, jasorat, tarixiy haqiqat, badiiy talqin.

Аннотация

В статье ставится цель проследить художественное осмысление образов двух великих личностей — Хусейна Бойкаро и Алишера Навои — в узбекской литературе. Проанализированы события романа «Свеча и сабля» Музафара Мирзо, занимающего особое место в узбекской литературе. Раскрыто мастерство писателя в передаче внутреннего мира героев. Анализируется великая дружба великого мыслителя и поэта Алишера Навои и правителя и поэта Хусейна Бойкаро, а также их чувства друг к другу. Приведены методы классификации при изучении исторических личностей. Для раскрытия внутреннего мира героев и одновременной объективной передачи читателю того, что эти исторические личности были умными, проницательными и мудрыми людьми, использованы фрагменты из романа «Свеча и сабля». Произведение обладает не только художественной ценностью, но и научно-литературной значимостью благодаря точному отображению исторических фактов.

Ключевые слова: Самарканд, изгнание, историческая личность, правитель, храбрость, историческая правда, художественная интерпретация.

Abstrakt

This article aims to analyze the artistic interpretation of the figures of two great personalities—Husayn Bayqara and Alisher Navoi—in Uzbek literature. The events of Muzaffar Mirzo's novel "Sham va Shamshir" (Candle and Sword), which holds a distinctive place in Uzbek literature, are examined. The writer's skill in revealing the psychological depth of the characters is highlighted. The profound friendship between the great thinker and poet Alisher Navoi and the king and poet Husayn Bayqara, along with their mutual feelings, are analyzed. The article also discusses methods of classification used in studying historical figures. To portray the characters' inner world and convey to the reader that these historical figures were intelligent, perceptive, and wise, excerpts from the novel "Sham va Shamshir" are included. The work holds scientific and literary value not only for its artistic merit but also for its accurate depiction of historical facts.

Keywords: Samarkand, exile, historical figure, ruler, courage, historical truth, artistic interpretation.



O'zbek adabiyoti tarixi o'zining uzoq o'tmishiga, tarixiga ega. Asrlar davomida buyuk siymolarning yaratgan ma'naviy-ma'rifiy xazinasini bugungi kunda ham dasturulamal vazifasini o'tab kelmoqda. Shu ma'noda ajdodlarning shaxsiyatini hayot yo'lini ilmiy adabiy merosini o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Sharq xalqlari bag'rida yetishib chiqqan buyuk siymolar Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro singari allomalarning bosib o'tgan shonli yo'li nafaqat tarixiy manbalarda balki badiiy asarlarda ham o'zining talqinini topib kelmoqda. Ular yaratgan ulkan obida badiiy asarlar mazmuniga singib, adib adabiy estetik qarashlari bilan omuxtalashib, badiiy asarning yaratuvchanlik qudratini oshirmoqda.

O'zbek adabiyotida zamonaviy adabiyotlar bilan bir qatorda tarixiy romanlar ham juda ko'plab yaratilgan. Bularni sanasak, son-sanoqsiz. Masalan, Oybekning "Navoiy" romani, Isajon Sulton "Alisher Navoiy", Omon Muxtor "Navoiy va rassom Abdulxayr", ... Mana shunday ijodkorlardan biri Muzaffar Mirzo. Tarixiy shaxslar haqida yaratilgan asarlar turli janrlarda uchrashi mumkin. Ularning eng salmoqlisi romanlarda uchraydi. Tarixiy romanlarni yaratishda yozuvchilarning qo'llagan usullari tarixiy faktlarga yondashuvi jihatidan o'zaro farqlanadi.

Muzaffar Mirzo, 1954 yilda, Toshkent shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Milliy Universiteti Jurnalistika fakultetini tugatgan. Yozuvchining Temuriyzoda Sulton Ulug'bek Mirzoning bolalik hayotidan yozilgan "Uzuk ko'zidagi xat" (1980 yil), "Panoh" povestlari (1991 yil) nashr qilingan.

Muzaffar Mirzoning "Sham va shamshir" romanida buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning Samarqandda kechgan og'ir hayoti o'z talqinini topgan.

Kitobga so'z boshi yozgan Aziz Qayumov: "Yozuvchi Muzaffar Mirzoning "Sham va shamshir" romanini diqqat bilan, berilib o'qidim. Unda ulug' ustozimiz, shoir va mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiyning yoshlik yillari to'g'risida hikoya qilingan. Muallif, Muzaffar Mirzo yetuk, talantli, bilimdon, o'z kasbining butun asroridan to'la xabardor adib sifatida ko'rinadi. U xarakterlar tasvirida mahoratli, asar badiiy matosini mazmundor, qiziqarli va malakali ravishda rostlovchi ijodkor o'zini ko'rsatgan".[3: 5]

Olim Aziz Qayumov ta'kidlaganidek, diqqatga sazovor yana bir jihati Alisher Navoiy yosh bo'lishiga qaramay, taqdirning shiddatli uqubatlariga bardosh bera olgani yorqin lavhalarda o'z tasvirini topgan. Ilm va ma'rifatga intilgan yigitning aziz ustozlari haqida mufassal ma'lumotlar berilgan.

Buyuk adibga "ota masobasida(o'rnida)" otalik qilgan insonlardan biri, olimu fozil – Said Hasan Ardasheriga bitilgan nazmiy maktub romanining asosiy g'oyasini belgilagan. Tarixiy nuqtayi nazardan, haqiqat ham "Xazoyin ul-maoniy" devoniga kirgan bu masnaviy Navoiyning "Hasbi-holi" – hol-ahvoli, kechmishi bayonidir.

"Sham va shamshir" romani qunt bilan o'rganilgan tarixiy voqealar asosida yozilgani bilan ahamiyatlidir.



Tarixiy shaxslarni o'rganish jarayonida quyidagicha tasniflashdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kuzatishlarimiz bo'yicha buyuk tarixiy shaxslarning talqiniga bag'ishlangan epik hamda lirik asarlarning markazida turgan tarixiy shaxs timsoli va uning yaratilishida o'sha obrazga muallifning e'tiqodi nuqtayi nazaridan razm solish hamda uni anglash badiiy asar yoki lirik misralarning ayni mohiyatini tushunishga yordam beradi. Bu jihatdan tarixiy shaxs timsollarini quyidagicha tasniflash mumkin:

a) hukmdor inson (Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Boyqaro); (badiiy asarlarda aks ettirilgan tarixiy-hukmdor shaxs Amir Temur faoliyati tahlil etilsa, ko'proq jang tasvirlari, urushdagi qon kechimlari holati gavdalandiriladi.)

b) mutafakkir (Alisher Navoiy); (Mutafakkir so'zi chuqur falsafiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan kishi, tafakkur sohibi ma'nolarini o'zida jam etadi. Bu sifat bilan, eng avvalo, birinchi galda Alisher Navoiy siymosi gavdalandiriladi.)

c) ijodkor inson (tarixda ijod bilan shug'ullangan shaxslar); (tarixiy voqelikni ifodalashda rassom, shoir, musiqachi obrazlari qanchalik haqqoniy tasvirlansa, asarning badiiy qimmatini shu darajada yuksak bo'ladi.)

d) olim obrazi (Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek); (tarixiy – olim shaxs obrazi aks ettirilganda ular tomonidan yaratilgan ilmiy yutuqlar tarixiy-faktik ma'lumotlar fonida badiiy tarzda ifodalandi);

e) sarkarda jangchi obrazi (Jaloliddin Manguberdi kabi). Aslida bu tasniflarning bir nechtasini o'zida aks ettiruvchi tarixiy shaxslar ham mavjud bo'lib, ularning qaysi qirrasini namoyon etilayotgani she'riy misralarda aks etib turadi. Badiiy asarlarda ifodalanayotgan tarixiy shaxs obrazining qaysi tasnifga mos kelishi asar voqeligidagi tasviriy unsurlarda, peyzaj va portret ifodasida yaqqol ko'zga tashlanadi.[4: 25–27]

Navoiy haqidagi asarlarda shoir bilan Husayn Boyqaro o'rtasidagi nozik munosabat tilga olinadi. "Sham va shamshir" romanida Navoiyning Husayn Boyqaroga bo'lgan munosabatini, Husayn Mirzoning shijoati va jasoratini ko'ramiz. "Hirotni begonasi bo'ldim" bo'limidagi Navoiy, Jomiy va Samarqandiyning suhbatini orqali Navoiyning Husayn Boyqaroga bo'lgan munosabatini, tashvishlanishini, do'stiga bo'lgan muhabbatini, nozik qalb egaasi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu suhbatning oxiri ko'tarinkilik bilan tugaganiga, Jomiyning ehtiros bilan Husayn Boyqaroga bergan ta'rifiga guvoh bo'lamiz: "...Qutlug' burj adolatni g'ubordan forig' etmak arafasida", - deya ko'nglidagini dangal aytib yuborganidan Samarqandiy darboza va bog' tarafga xavotirda qarab qo'ydi.

Bobosi Amir Temur kabi qiron burjida tug'ilgan shahzoda Husayn mirzoni nazarda tutgan Samarqandiyga miyig'ida kulib qo'yarkan, Jomiy:

- Sohibqironayn va bahrayn, - dedi ehtiros bilan.

- Ikki yurt vahdatiga vakolatli bo'lmish saodatmand shahzodaning toleyi baland bo'lg'ay".[3: 99]

Husayn Boyqaroning bobokaloni kabi sohibqironayn nisbasi bekorga berilmaganiga guvoh bo'lamiz. Amir Temur hazratlari qirq chog'li navkari bilan



Keshga tahdid solgani kabi, Husayn Boyqaro ham o'ttiz navkari bilan Sulton Sanjarning va hukmdorning va Muhammad Ali boshliq lashkariga qarshi ochiq jangga chiqdi. Ochiq va yakkama-yakka jang qilishda, qilichbozlikda, kamondan o'q otishda bobosi Amir Temur kabi benazir Husayn Boyqaro maxfiylik, hiylalari xususida eshitgan. Biroq bunday tadbirning ishtirokchisi bo'lmagan edi. "Ko'hikiyti xazinasi" bo'limida bunga guvoh bo'lamiz. Bu parcha orqali adib bizga Husayn Boyqaroning ko'p qirralarini ochib bera olgan. Husayn Boyqaroning tafakkuri, Alisher Navoiyga bo'lgan ixlosi – muhabbati, sog'inchi go'zal ifodalangan.

"Bibi munajjim bashorati"da keltirilishicha, Alisher Navoiy Hirotga kelganida Mirak Naqqoshning ayoli Navoiyning mushkuloti oson bo'lishi uchun uning uyiga Bibi munajjimni olib keladi. Navoiyning Husayn Boyqaro bilan qismatdosh ekanligini nujum orqali qiyoslaydi. Bu ikki buyuk shaxs Mushtariy va Sa'd axtar yulduzlariga qiyoslanadi va bu ikki kavkab hamal burjida anjuman etmagining xosiyati haqida so'z boradi.

Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning maktublari ham asar qahramonlarinig naqadar zakiiy, nozik fikrli va oqil ekanliklarini ochib bergan. Quyida avval Husayn Boyqaroning maktubi keltiriladi: "Va alar zamonida mol-mulk tasarrufi buzulg'oni jihatidin istagidin mahrum bo'lg'on g'amgin mudarris ayni vaqtda, shukrkim, dorussaltanada taxminan yuz karra zimdan dars aytur, dindagi fozillar va ilmu yaqinlar tahsil olurlar..."

Husayn Mirzo o'z maktubida, sipoh so'zlab bergan voqealar, tog'asi Muhammad Alining sarguzashtlari, uni yana lashkarboshi etib tayinlagani xususida batafsil bayon qilgandi. Alisherning otasidan qolgan xazinani ruxsatsiz tasarruf etgani uchun uzr so'rab, ming taassuf bilan yozgan maktubini she'riy misralar bilan yakunlagandi.

Xonada begona kishi borligiga aslo e'tibor qilmay, dilidagini aytib yubordi:

- Shoh G'oziy..." [3: 460]

Bu parcha orqali yana biz Husayn Boyqaroni shoh G'oziy deb ataganiga ham guvoh bo'lamiz.

Alisher Navoiyning dilini o'rtayotgan alam bilan do'stiga yozgan maktubi ham go'zal satrlar bilan bitilgan: "...Har tong to quyosh nurlari go'zallik yurtining sipohlari himoyati uchun tong daryosidan handaq qazib, zulmat qo'shinini daf etg'ay va har tong to handaqdin chiqib, qora tunning gulchehralari sunbul zulfidek parishon qo'shinini toru mor qilib, osmon qo'rg'ononi qo'lga kirutsun...ochiq, oftobdek yaxshi niyatli otliqlar shohi uchun tangri taolo daryo-ko'llardan handaq qilib, dushman o'z domiga tortsun. Nusratnishon shohimizga hushyorlig'da maqlablig' daryosidan tufrog'ini ko'kka sovurib, yurtu mamlakat qo'rg'onini qo'lga kiritishni nasib qilsun".[3: 462]

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, "Sham va shamshir" romani Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro siymosini badiiy jihatdan mukammal tasvirlagan asar sifatida qadrlaydi. Tarixiy asar tarixiy shaxs, tarixiy voqealarni qayta jonlantirib, kitobxonni o'z davridan olislarga olib ketadi. Kitobxon "Sham va shamshir" romanini o'qish jarayonida ham tarixiy voqealar qayta jonlanib, xuddi



Navoiy va Husayn Boyqaro bilan hamnafas do'stona munosabatda bo'ladi. Muzaffar Mirzo talqinida Navoiy va Husayn Boyqaro obrazlari yosh bo'lishlariga qaramay taqdirning shiddatli uqubatlariga bardosh bera olgani yorqin tasvirlarda aks etadi.

Muzaffar Mirzoning "Sham va shamshir" asari XV asr ikkinchi yarmi XVI asr boshlaridagi Xuroson davlatining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro siymosining qo'shgan hissasi, bu ikki buyuk zot hamkorligi, do'stligi natijasida Hirot Sharqning eng gullagan markaziga aylanishi xususidagi tarixiy faktlarni o'zida badiiy aks ettigan asar sifatida qadrlidir. Bugunga qadar yaratilgan tarixiy asarlar sirasida "Sham va shamshir" romani o'zining munosib o'rniga, ilmiy qimmatiga ega. Muallifning boy tajribasi, uzoq yillik kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan mazkur asar sharq xalqlari tamadduniga buyuk hissasini qo'shgan ikki buyuk shaxs Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro siymosini o'zida yorqin ifodalangan tarixiy roman sifatida adabiyotshunoslikda muhim mavqega munosib deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аҳмедов Н. Ўзбек адабиётида Алишер Навоий сиймосини талқин этиш муаммолари. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент: 1994. – 343 б.
2. Jo'rayeva N. Husayniy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. – Toshkent: NIF. MSH, 2021. – 116 b.
3. Музаффар Мирзо. Шам ва шамшир. – Тошкент: Ижод-пресс, 2021. – 496 б.
4. Юсупова М. Тарихий шахслар образининг лирик ва эпик талкини. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2023. – 138 б.

TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNINYING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)

Nizomjonova Durdona Nizomjonovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

durdonanizomjonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid davrida maktablarda qo'llanilgan usullar va idrok etish, tushunishga asoslangan usuli savtiya Sadriddin Ayniyning "Eski maktab" asari asosida ochib beriladi. Shuningdek maqolada Sadriddin Ayniy faoliyati, bolalik davri, ilm olish jarayonlari haqida ham tahliliy mulohazalar berib boriladi. XIX asr o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar mavjudligi, qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy ta'lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar ekanligi, Ayniy ham shunday maktablarning birida ta'lim ko'rganligi, bu maktablarda masjidlarining imomlari va mullalar dars berganligi dalillar asosida yoritilgan. Oldingi davrda ham, hozirgi davrda ham qo'llaniladigan usullar, metodlar tushunishga asoslanishi, shunda o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari paydo bo'lishi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim shakllari, rus tuzem maktablari, madrasa, tarbiya, usuli savtiya, usuli maddiya, usuli hijoiya, abjad.



DÜŞÜNCELER	
Rahmonova Shahlo Rashidovna. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAOL AYOL TASVIRI	135
Abdullayeva N.M. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	144
Заки Арсланович Алибаев. СОВРЕМЕННАЯ БАШКИРСКАЯ ПОЭЗИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	150
Акжолова Таңнұра Нурбековна. КАРЫЛАРГА БОЛГОН МАМИЛЕНИН ЖОМОКТОРДО КАМТЫЛЫШЫ	158
Begmatova Dildora Abdunematovna. MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI AYRIM MAQOLLAR TASNIFI	163
Erkinova Madinaxon Umid qizi. XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI	171
Mansurova Yulduz Faxriddinovna. MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI	175
Nizomjonova Durdona Nizomjonovna. TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNIYNING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)	179
Qurbonboyeva Mohidil Isroil qizi. "ARBAIN" VA "NAZM UL-JAVOHIR" DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA	184
Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi. O'ZBEKISTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI	189
Avezova Maktuba To'rayevna. YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI	193
Мухаббат Масадикова Гайбуллаевна, Қойшыбай Арайлым. TÜRK HALK HİKAYELERİNDE ANLATI YAPISI	198
Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna, Almanova Sumbula Usmanovna. ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI	205
II SHU'BA. HOZIRGI TURKIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Ravshanxo'ja Rasulov. TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK	213
Mirzaqulov Tursunali O'tayevich. TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA	218
Е.М. Молдасанов, Абдувалитов Н.Б. АНА ТІЛІНІҢ СӨЗ СЫРЫ	222
Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi. TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI	227
Esayeva Dilafruz Azamatovna. ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI	233
Sharipova Xumora Zayniddinovna. OLMOSHLARNING KONTEKSTDA QO'LLANISHI	236
Umarova Diafruz Razzakberdiyevna. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI	239

